

YANGI O'ZBEKISTONDA SUDLAR FAOLIYATIGA DOIR ISLOHOTLAR, MAQSAD VA VAZIFALAR

Ergashev Aziz Adilovich

Farg'ona yuridik texnikum direktori

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17477724>

Annotatsiya. ushbu maqolada muallif tomonidan yangi O'zbekistonda sudlarning chinakam mustaqilligiga erishish, odil sudlovni ta'minlash borasida sud tizimida amalga oshirilayotgan institutsional va boshqa islohotlar, odil sudlov sohasida yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Odil sudlov akademiyasining tashkil etilishi, tergov sudyalari institutining joriy etilishi bilan bog'liq masalalar xususida fikrlar yuritilgan.

Kalit so'zlar: sud hokimiyati, odil sudlov, "virtual sud", Odil sudlov akademiyasi, Sud tizimi, Sudyalar oliy kengashi, tergov sudyasi, sudyalar hamjamiyati.

РЕФОРМЫ, ЦЕЛИ И ЗАДАЧИ СУДОВ В НОВОМ УЗБЕКИСТАНЕ

Аннотация: в данной статье автор рассматривает вопросы, связанные с достижением подлинной независимости судов в новом Узбекистане, институциональными и другими реформами, осуществляемыми в судебной системе для обеспечения справедливого судебного разбирательства, созданием Академии правосудия Республики Узбекистан для коренного совершенствования системы подготовки высококвалифицированных кадров в сфере правосудия и внедрением института следственных судей.

Ключевые слова: судебная власть, правосудие, "виртуальный суд", Академия правосудия, Судебная система, Высший судейский совет, следственный судья, судейское сообщество.

REFORMS, GOALS AND OBJECTIVES OF THE COURTS IN THE NEW UZBEKISTAN

Abstract: In this article, the author examines issues related to achieving genuine judicial independence in the new Uzbekistan, institutional and other reforms implemented in the judicial system to ensure fair trials, the establishment of the Academy of Justice of the Republic of Uzbekistan to fundamentally improve the system of training highly qualified personnel in the field of justice, and the introduction of the institution of investigative judges.

Key concepts: judicial authority, justice, "virtual court", Academy of Justice, Judicial System, Supreme Judicial Council, investigative judge, judicial community.

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan sud-huquq islohotlarining asosiy maqsadi mustaqil, kuchli sud hokimiyatini vujudga keltirishdan iboratdir. Sud hokimiyati nafaqat uch hokimiyatning biri, balki uning yuksak nufuzli huquqiy holati, jamiyat va davlat hayotida inson huquqlari, demokratiya va qonuniylik barqaror bo'lishining asosiy sharti bo'lib hisoblanadi.

Sud hokimiyatining eng oliy vazifasi – fuqarolarning huquq va erkinliklarini, uning qonuniy manfaatlarini hamda mamlakat konstitutsiyaviy tuzumini himoya qilish, qonun chiqaruvchi va ijroiya hokimiyati hujjatlarining Konstitutsiyaga muvofiqligini ta'minlash, qonunlarni va boshqa normativ hujjatlarni ijro qilish va qo'llashda qonuniylik hamda adolatni ta'minlashdan iboratdir.

Sud – odil sudlovning oliy nuqtasi va shuning uchun ham uning rolini oshirish huquqiy demokratik davlat barpo etish yo'lidagi qonuniy jarayon hisoblanadi. Sud-huquq tizimini isloh

qilish bo'yicha amalga oshirilgan ijobiy ishlarni qayd etar ekanmiz, bu sohada hali yechimini kutib turgan muammolar borligini ham inkor eta olmaymiz. Bu muammolar, birinchi navbatda, sudlarning haqiqiy mustaqilligi va erkinligini ta'minlash, sud ishlarida adolatli qarorlar qabul qilishga qodir bo'lgan, yuksak malakali, xalol va pok vijdonli sud xodimlari korpusini shakllantirish, sudlarda ishlarni ko'rish sifatini yanada oshirish bilan bog'liqdir.¹

Shu munosabat bilan keyingi yillarda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining bir qator farmonlari qabul qilindi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 21-oktyabrdagi PF-4850-sonli "Sud-huquq tizimini yanada isloh qilish, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi,² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 7-dekabrdagi PF-6127-sonli "Sudyalarning chinakam mustaqilligini ta'minlash hamda sud tizimida korrupsiyaning oldini olish samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi,³ 2023-yil 16-yanvardagi PF-12-sonli "Odil sudlov faoliyatini amalga oshirishni samarali tashkil etish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi⁴, 2023-yil 16-yanvardagi PF-11-sonli "Odil sudlovga erishish imkoniyatlarini yanada kengaytirish va sudlar faoliyati samaradorligini oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi⁵, 2025-yil 21-avgustdagi PF-141-sonli "Odil sudlov sohasida yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" Farmoni⁶larini sanab o'tish o'rinlidir.

Mazkur yo'nalishda Prezidentimiz tomonidan oxirgi qabul qilingan farmonda amalga oshirilayotgan sud tizimida malakali kadrlar tayyorlash takomillashtirganga qaratilgan muhim islohotlardan biri sifatida Sudyalar oliy maktabi faoliyatini tubdan isloh qilish, ya'ni Sudyalar oliy kengashi huzuridagi Sudyalar oliy maktabi negizida O'zbekiston Respublikasi Odil sudlov akademiyasini tashkil etilganligini ta'kidlash joiz. Endi ushbu Akademiya Sudyalar oliy kengashi huzurida faoliyat yurituvchi, yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan ixtisoslashtirilgan davlat ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasasi sifatida faoliyat yuritadi, kasbiy qayta tayyorlash kurslarida sud majlislarini real vaqt rejimida kuzatish va sudyaning protsessual harakatlarini tahlil qilish imkonini beruvchi "virtual sud" mashg'ulotlari joriy etiladi, shuningdek, sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish bo'yicha o'quv darslari tashkil etiladi, kasbiy qayta tayyorlash kurslarini muvaffaqiyatli tugatganligi to'g'risidagi sertifikatga ega bo'lgan shaxslar arizasiga asosan bo'sh sudyalik lavozimlariga o'tkaziladigan tanlovlarda ishtirok etadilar.

¹ S. Avazov. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi mamlakatimizda amalga

oshirilayotgan sud-huquq islohotlarining asosi. <https://docs.yandex.ru/docs/view?tm=1761457677&tld=ru>

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 21-oktyabr PF-4850-sonli "Sud-huquq tizimini yanada isloh qilish, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni. <https://lex.uz/docs/3050491>.

³ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 7-dekabrdagi PF-6127-son "Sudyalarning chinakam mustaqilligini ta'minlash hamda sud tizimida korrupsiyaning oldini olish samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni. <https://lex.uz/docs/5146554>.

⁴ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 16 yanvardagi PF-12-son "Odil sudlov faoliyatini amalga oshirishni samarali tashkil etish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni. <https://lex.uz/docs/6358913>.

⁵ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 16-yanvar PF-11-son "Odil sudlovga erishish imkoniyatlarini yanada kengaytirish va sudlar faoliyati samaradorligini oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni. <https://lex.uz/docs/6358976>.

⁶ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 21-avgustda PF-141-son "Odil sudlov sohasida yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" Farmoni. <https://lex.uz/ru/docs/7696594>.

Sud tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar doirasida joriy yil 1-yanvaridan amalda qo'llanilishi boshlangan yangi institutsional o'zgarish, ya'ni tergov sudyasi institutining joriy etilishi ham o'ziga xos ahamiyat kasb etdi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 10-iyun PF-89-sonli "Tezkor-qidiruv hamda tergov faoliyatida shaxsning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini yanada kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni⁷ qabul qilindi hamda ushbu farmon bilan tergov sudyalari qamoqqa olish yoki uy qamog'i tarzidagi ehtiyot chorasini qo'llash, qamoqda saqlash yoki uy qamog'i muddatini uzaytirish, pasportning (harakatlanish hujjatining) amal qilishini to'xtatib turish, murdani ekskumatsiya qilish, pochta-telegraf jo'natmalarini xatlash, tintuv o'tkazish, telefonlar va boshqa telekommunikatsiya qurilmalari orqali olib boriladigan so'zlashuvlarni eshitib turish, ular orqali uzatiladigan axborotni olish, mol-mulkni xatlash, ayblanuvchini lavozimidan chetlashtirish, shaxsni tibbiy muassasaga joylashtirish, ayblanuvchining tibbiy muassasada bo'lishi muddatini uzaytirish, ushlab turish muddatini qirq sakkiz soatga qadar uzaytirish hamda guvoh va jabrlanuvchining (fuqaroviy da'vogarning) ko'rsatuvlarini oldindan mustahkamlash to'g'risidagi iltimosnomalarni ko'rib chiqish va yuqoridagi protsessual cheklashlarga ruxsat berish kabi vakolatlariga ega bo'ldi.

Tergov sudyalarining vujudga kelishi haqidagi tarixiy ma'lumotlarni ko'rsak, bu institut Fransiyada 14-15 asrlarda paydo bo'lgani va Napoleon hukmronligidagi Fransiyaning 1808-yildagi jinoyat protsessual kodeksida qonun bilan mustahkamlanganini ko'rish mumkin.⁸

Tergov jarayonida barcha shaxslarning teng huquqliligi, surishtiruv yoki tergov organi va himoyachining vakolat va vazifalarini tenglashtirgan holda inson huquqlarini to'liq ta'minlashga erishish mumkinligi ilg'or g'arb davlatlari misolida namoyon bo'lmoqda.

Jumladan, xorijiy davlatlar amaliyotiga ko'ra, jumladan, Fransiyada tergov ustidan nazorat tergov sudyasining vazifasi hisoblanadi. Xuddi shu amaliyotni Germaniya, Belgiya, Avstriya va boshqa ilg'or g'arb davlatlarida ham ko'rish mumkin.

Sudyaning dastlabki tergovda to'liq ishtirok etishi tergovga xalaqit berishi mumkin va xorij tajribasiga ko'ra, faqat insonning konstitutsiyaviy huquqlarini cheklashda yoki ularni buzilgani haqida shikoyat bo'lganda tergov sudyasi o'zining faoliyatini olib boradi.

MDHdagi ayrim davlatlarda ham ushbu institut bir necha yildan buyon amalda. Misol tariqasida, Qozog'iston Respublikasida ham tergov sudyalari 2015-yil buyon faoliyat yuritib kelmoqda hamda bugungi kunda bu amaliyot ancha ijobiy natija berganini ta'kidlash mumkin.

Tergov sudyasi faoliyatining asosiy yo'nalishlari sifatida quyidagilar belgilandi:

Birinchidan, qonunchilikda belgilangan tartibda tergov sudyasiga yuklatilgan vazifalarni adolatli va xolisona bajarish;

Ikkinchidan, qonun ustuvorligini, ijtimoiy adolatni, fuqarolar tinchligi va totuvligini ta'minlash;

Uchinchidan, fuqarolar va yuridik shaxslarning huquqlari hamda qonuniy manfaatlarini sud yo'li bilan samarali himoya qilish.

Sudlar faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan islohotlar doirasida Yurtboshimizning bir qator farmonlaridan tashqari yana bir muhim hujjat O'zbekiston Respublikasi Prezidentining

⁷ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 10-iyun PF-89-sonli "Tezkor-qidiruv hamda tergov faoliyatida shaxsning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini yanada kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni <https://lex.uz/docs/6964387>.

⁸ Tergov sudyalari: "ikki qutb" o'rtasidagi adolat tarozisi. <https://sudyalariolykengashi.uz/uz/news/854>.

2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son Farmoni bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi⁹ ham mavjud bo‘lib, mazkur hujjat bilan bu 2030-yilgacha bo‘lgan davrda ushbu yo‘nalishda amalga oshirilishi kerak bo‘lgan yana bir qator vazifalar belgilab berilgan.

Strategiyaning Sud hokimiyatining mustaqilligini kuchaytirish va uning faoliyatida ochiqlikni ta‘minlash orqali odil sudlovga erishish darajasini oshirishga qaratilgan vazifalar doirasida sud tizimini boshqarishga sudyalarning o‘zini o‘zi boshqarish tamoyilini to‘laqonli joriy etish hamda sudyalarning hamjamiyati organlari tizimini to‘liq shakllantirish masalasiga kelgusida yana ham kengroq yondoshish lozim degan fikrdamiz.

Bundan tashqari olib borgan o‘rganishlarimiz barobarida biz ham quyidagi takliflarni aytib o‘tishni lozim topdik. Xususan, qonunchiligimizda sudyalarga qo‘yiladigan yosh talablariga o‘zgartirish kiritish kerak degan fikrdamiz, ya‘ni bunda fuqarolik ishlari bo‘yicha tayinlanadigan sudlarga yosh talabi 40 yoshdan qilib belgilansa maqsadga muvofiq bo‘lar edi. Chunki, ayniqsa, oila-nikoh, farzandlar bilan bog‘liq, mulkiy nizolar bilan bog‘liq masalalarni ko‘rib hal qilishda albatta, bilimdan tashqari katta hayotiy tajriba ham nizolarni to‘g‘ri va adolatli hal qilishda muhim ahamiyatga ega bo‘lib, kelgusida sudyalarning chiqarilgan qarorlaridan shikoyat qilish holatlarining kamayishiga olib keladi.

REFERENCES

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. –T.: “O‘zbekiston”, 2023 y.
2. O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 28-iyuldagi “Sudlar to‘g‘risida”gi qonuni. <https://lex.uz/docs/5534923>.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 21-oktyabr PF-4850-sonli “Sud-huquq tizimini yanada isloh qilish, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni. <https://lex.uz/docs/3050491>.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 7-dekabrdagi PF-6127-son “Sudyalarning chinakam mustaqilligini ta‘minlash hamda sud tizimida korrupsiyaning oldini olish samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni. <https://lex.uz/docs/5146554>.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 16 yanvardagi PF-12-son “Odil sudlov faoliyatini amalga oshirishni samarali tashkil etish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni. <https://lex.uz/docs/6358913>.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 16-yanvar PF-11-son “Odil sudlovga erishish imkoniyatlarini yanada kengaytirish va sudlar faoliyati samaradorligini oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni. <https://lex.uz/docs/6358976>.
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 21-avgustda PF-141-son “Odil sudlov sohasida yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” Farmoni. <https://lex.uz/ru/docs/7696594>.
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 10-iyun PF-89-sonli “Tezkor-qidiruv hamda tergov faoliyatida shaxsning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish

⁹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son ““O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida” farmoni. <https://lex.uz/docs/6600413>.

- kafolatlarini yanada kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni
<https://lex.uz/docs/6964387>.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son
“O'zbekiston – 2030” strategiyasi to'g'risida” farmoni. <https://lex.uz/docs/6600413>.
10. S. Avazov. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi mamlakatimizda amalga
11. oshirilayotgan sud-huquq islohotlarining asosi.
<https://docs.yandex.ru/docs/view?tm=1761457677&tld=ru>
12. Tergov sudyalari: “ikki qutb” o'rtasidagi adolat tarozisi.
<https://sudyalaroliykengashi.uz/uz/news/854>.